



## BUGUNGI ADABIY JARAYONDA NASR

**Samadova Hamida**

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti  
O'ZMPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 401-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Shodmon Sulaymon ijodi hamda bugungi adabiy jarayonda nasr va kitob mutolaasiga to'xtaladi. Shodmon Sulaymon ham filolog ham adabiyotchi shoir sifatida faoliyat yuritadi. Shodmon Sulaymon bir qancha ilmiy risolalarning muallifi hamdir.

**Kalit so'zlar:** Shodmon Sulaymon, palata, filolog, dramaturgiya, sahna, modern adabiyot, shoir, ichki kechinma, ishonch, ona yurtga sadoqat

**Аннотация:** Статья посвящена творчеству одного из самых ярких представителей современной узбекской литературы, Шодмона Сулеймона, а также роли прозы и чтения книг в современном литературном процессе. Шодмон Сулеймон работает как филолог и литературный поэт. Он также является автором нескольких научных трактатов.

**Ключевые слова:** Шодмон Сулеймон, камерная живопись, филология, драматургия, театр, современная литература, поэт, внутренний опыт, доверие, верность родине.

**Abstract:** The article focuses on the work of one of the brightest representatives of modern Uzbek literature, Shodmon Sulaymon, and on the role of prose and book reading in today's literary process. Shodmon Sulaymon works as both a philologist and a literary poet. Shodmon Sulaymon is also the author of several scientific treatises.

**Key words:** Shodmon Sulaymon, chamber, philologist, dramaturgy, stage, modern literature, poet, inner experience, trust, loyalty to the motherland

### KIRISH

Zamonaviy adabiyotimizda hozirgi kunda tub burilish bo'ldi. Ya'ni, modern adabiyot kirib keldi. Endi asarlardagi bosh mavzu sevgi, ish emas, ko'proq insonning ichki olami, o'z-o'zi bilan kurashi, ichki monologlari va psixologiyasi bilan bog'liq voqealar keltiriladigan bo'ldi. Demakki, adabiyot ham jamiyatda rivojlanish va taraqqiyot o'zgargani sari zamonaviylashib boraverar ekan. Hozirgi kunda badiiy adabiyotda o'zining ham nazmiy ham nasriy asarlari bilan faoliyat olib kelayotgan Shodmon Sulaymon zamonaviy adabiyotimizning eng yetuk vakillaridandir. Shodmon Sulaymon 1975 yilda tug'ilgan. Buxoro davlat universitetining o'zbek filologiyasi

fakultetini tugatgan. Shu kungacha uning ilmiy maqola, risola va she'riy va nasriy kitoblari nashr etilgan.

### **ASOSIY QISM**

Zamonaviy adabiyotimizda bugungi kunda ham qalam tebratib kelayotgan Shodmon Sulaymon o'zining bir qator maqola, risola va to'plamlari bilan ma'lum va mashhurdir. Asli Buxoroda tug'ilgan shoir 2015-yildan buyon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi rahbari sifatida barakali ijodiy faoliyat yuritib kelmoqda. U o'zining she'rlari, hikoya va qissalarida insoniy kechinmalar mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Insonlar hayotida uchraydigan ruhiy qiynoq, quvonch va qayg'u, yaxshilik va yomonlik habi illatlar va tuyg'ularni nasriy asarlari sirasiga kiruvchi "Odamning soyasi", "Tug'ilgan kun" nasriy to'plamlarida e'lon qiladi. Biz Shodmon Sulaymonni faqatgina shoir yoki nosir deya olmaymiz. Chunki uning dramaturg sifatida ham yaratgan asarlari bor. 2018-yil "Etti pir" dostoni asosida yaratilgan oratoriya "O'zbekiston davlat konservatoriyasida, "Iste'fo" dramatik doston asosida sahnalashtirilgan "Nido" monospektakli O'zbekiston Milliy akademik drama teatrida namoyish etilgan.

Shodmon Sulaymon qalamiga mansub "Uchinchi palata" qissasida ham birqator insoniy kechinma va sifatlar qalamga olingan. Ushbu qissa inson ruhiyatining murakkab qirralari hamda ijodkor shaxsining ichki dunyosini va hayot mamot orasidagi bog'liqliklarni mahorat bilan tasvirlaydi. "Yaxshi ijodkorlar yozganlariga juda-juda o'xshaydilar" qissada kelgan ushbu fikrlar asarning eng oldi g'oyalaridan biridir. Shoirning kasalxonaga kirib kelishi "kuzning iliq quyoshi kabi jilmayib" deya tasvirlanadi. Bu so'zlarning qo'llanilishi orqali shoirning samimiy va mehribon inson ekanligi, har doim nursizlikdan ham nur qidiruvchi inson ekanligini ochib beradi. Uning ijodidagi insonparvarlikning eng katta namunasi – u o'zining og'riqlarini yashirib, doim boshqalarga yordam beradi, taskin beradi, masalan atrofida qilarga (hamshiralarga) aynan uning bu fazilatini ko'rsatib bergan.

Shoir palatada yotar ekan na ketishi na qolishini bilmaydigan holatga kelib qoladi. Shoirning bu holati esa "yarador qushdek ojiz talpinayotgan" jonga o'xshatiladi. Bu esa qissani o'qiyotgan kitobxonda rahm-shafqat hamda mehribonlik, lirik mungni uyg'otadi. Shoir palatada yota turib hayotining so'ngi pallalarni "sarhisob qilmoqchi" bo'ladi. Keyin hayoliga birqator o'ylar kelib uni og'ir o'ylar girdobiga uloqtiradi. Ushbu qissa orqali xulosaga kelishimiz mumkin bo'lgan yagona g'oya shoir obrazini qissada shunchaki bemor sifatida bermaydi, balki o'z dardini san'at darajasiga ko'targan, hatto o'lim bilan yuzma-yuz kelib turgan holatida ham she'r qidirayotgan metin yurak, iroda egasi sifatida tasvirlaydi.

Shodmon Sulaymon ijodi modern adabiyoti ruhida yozilganligi bilan boshqa adabiy namunalardan ajralib turadi. Badiiy asarlarning qiymatini oshiruvchi sinonim so'zlar ham aynan shoir ijodida juda ko'p uchraydi. Sinonimlarni bilamizki, so'z sehrini oshirishda, nutqimizda ravonli va go'zal qilishda hamda badiiy asarning qiymatini oshirishda foydalaniladi. Masalan, adibning "Muvashshah" she'rida "gapirmoq" fe'li o'rnida "g'udranmoq" so'zining qo'llanilishi shular sirasiga kiradi.

### **XULOSA**

Shodmon Sulaymon ijodida shaxs va ijodkor sifatida, uning Vatanga bo'lgan muhabbat, ona yurtga bo'lgan faxr va ishonch tuyg'usi, oilaga bo'lgan mehr va

muhabbat tuyg'ulari, xalq milliy qadriyat va an'analari birinchi o'rinda turadi. Insonning ichki kechinmalarini juda chiroyli o'xshatishlar orqali ochib beradi. Buning uchun albatta ijodkor so'z qo'llashni yaxshi bilishi yoki o'z kasbining mohiri bo'lishi kerak. Shodmon Sulaymon esa aynan shu kabi yetuk ijodkorlarimiz qatoriga kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bafoyeva, N. Shodmon Sulaymonning sinonimlardan foydalanish mahorati. Analysis of modern science and innovation.
2. Bafoyeva, N. (2025). THE RELATIONSHIP OF PERSONAL NAMES TO THE VOCABULARY LAYER IN THE NOVEL "DAYS GONE BY". TAMADDUN NURI JURNALI.
3. Shodmon Sulaymon, Uchinchi palata (qissa), 1975.
4. Mustaqimova M, Shodmon Sulaymon she'riyatida ajdodlar xotirasi talqini, Science shine.
5. Shodmon Sulaymon. Otamning ayvoni. She'rlar, dostonlar, monologlar, hikoyalar. – Buxoro: "Adabiy Buxoro" nashriyoti, 2024. – 316b.